



XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XITOIDA AYOLLAR ADABIYOTI TARAQQIYOTI

Axmedova Iroda Sobirjon qizi

Talaba, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O'zbekiston, Toshkent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6365623>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17 -fevral 2022
Ma'qullandi: 22-fevral 2022
Chop etildi: 27 - fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Mao Szedun ideologiyasi, ayollar adabiyoti, Bin Sin, bolalar adabiyoti, "Yosh kitobxonlarga maktublar", kundaliklar, Chjan Aylin.

Ayollar ijodi Xitoy adabiy jarayonning ajralmas, uzviy bir qismi hisoblanadi. Xitoyda ayollar adabiyotining paydo bo'lishi juda qadim davrlarga borib taqaladi va taraqqiyot nuqtai nazaridan katta davrni qamrab oladi. Qadimiy tamaddun o'chog'i hisoblangan Xitoy davlati o'z tarixiy taraqqiyoti mobaynida juda ko'plab tahlikali, ziddiyatli siyosiy jarayonlarni boshidan kechirdi. Ayniqsa, XX asr turli inqiloblar, siyosiy talotumlar davri bo'ldi. Ayollar adabiyoti ham davr bilan hamnafas tarzda rivoj topdi. Bugungi kunga kelib Xitoyda ayollar ijodkorlarning nomlari anonim qo'llaniladigan qadimgi davrlardan tubdan farq qiluvchi ayollar adabiy muhiti shakllangan bir mamlakatga aylandi. "Ayollar adabiyoti" Xitoyda rasman adabiy termin sifatida qo'llaniladi. Ayollar ijodi ulkan adabiy merosni tashkil qilib, bugungi kunga qadar uning turli qirralari dunyo sinologlari tomonidan o'rganilib

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola xitoy adabiyotining ajralmas va muhim qismi hisoblangan ayollar adabiyotining XX asr birinchi yarmidagi taraqqiyotiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'zlarining ijodi bilan mamlakat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida muhim o'rin egallagan, ham adabiy jarayonlarda, ham jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etgan Sie Bin Sin, Lu In, Din Lin, Syao Xun, Shi Pinmey, Sao Min, Lu Bicheng, Chjan Aylin kabi o'nlab adibalar haqida so'z boradi; ularning ijodida ko'tarilgan muammolar va tasvirlangan voqealiklar uyg'unligi o'z aksini topadi.

kelinmoqda. Mazkur tadqiqot doirasida fikr yuritmoqchi bo'lgan davr haqida Y.A.Kupriyanova, L.Li, Chju Szin, Syun Szichen kabi olimlarning ishlari bizning ishimizda bir qadar engillik tug'diradi. XX asrning 50-70 yillari xitoy adabiyotida yangi bir davr boshlandi, deb baholashadi olimlar¹. Buning bir necha tub sabablari bor edi. Buni to'g'ri anglash bir oz ortga, xitoy xalqining XX asr boshidagi tarixga nazar tashlashni taqozo etadi. Mamlakat tarixida XX asrning boshlarida sodir bo'lgan ikki yirik ijtimoiy-siyosiy voqea: Sinxay inqilobi² va "4-may harakati"³

¹ Сзычен Х. История современной китайской литературы. – Москва, 2016. – с 1, 33.

² Sinxay inqilobi – 1911-1913 yillarda Xitoyda sodir bo'lgan inqilob bo'lib, bu hodisa tufayli manjurlarning Sin sulolsasi hukmronligiga barham berilib, Xitoy respublikasi (1911-1949) e'lon qilindi.

³ "4-may harakati" – 1919 yilning may-iyun oylarida mamlakatda yoshlar tomonidan sodir



Xitoyda g'arb liberal qarashlarining, falsafiy tafakkurining xitoy jamoatchilik fikriga ta'siri kuchaydi. Bu harakat a'zolarining asosiy maqsadi xitoyning an'anaviy madaniyati va g'arb ilm-fan va madaniyatining eng ijobiy ilg'or tajribalarini uyg'unlashtirgan holda Yangi madaniyatni yaratish edi. 20-yillarning oxirlarida Mao Szedun adabiy ideologiyasi etakchi ideologiyaga aylandi.

Yangi xitoy adabiyotida "ayollar adabiyoti"ning alohida bir hodisa sifatida rivojlanishi aynan shu davrga to'g'ri kelib, bevosita Bin Sin 冰心 va Din Lin 丁玲 ijodiga bog'liq. XX asr boshlarida mamlakatda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar ayollarning feministik ruhdagi harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi. Natijada ko'plab ayollar adabiyotga murojaat qildilar. Bu davrdagi yana bir muhim xususiyat shundaki, agar qadimgi xitoy adabiyotida she'riyatning mavqei yuksak bo'lgan bo'lsa, endi bu davrga kelib ayollarning nasriy asarlar yozish tajribalari kuzatila boshlandi.

1937-yilda Yaponiya bilan boshlanib ketgan urush harakatlari Xitoyni hududiy jihatdan bir necha qismga bo'linishiga sabab bo'ldi. Natijada turli hududlarda turli boshqaruv tizimi shakllandi va bu hududlarda yashab ijod etgan yozuvchilarning bir xil muammolarga turlicha yondashuvi kuzatiladi. Urush bu davr adabiyotining etakchi mavzusiga aylandi.

etilgan ommaviy harakat bo'lib, u yaponlar tomonidan ishg'ol qilingan Shandun provinsiyasidagi sobiq germaniya konsessiyalarini Xitoyga qaytarib berish taklifini rad qilgan Parij tinchlik konferensiyasi qaroridan so'ng yuzaga kelgan.

XX asrning 20-30-yillarida adabiyot sahnasiga Bin Sin, Lin Shuxua⁴, Lu In⁵, Din Lin⁶, Syao Syun⁷, Shi Pinmey⁸ kirib keldilar. Albatta, bu adibalarning ijodi har biri alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishga loyiq. Bunday adibalarning nomlarini yana ko'plab keltirish mumkin. Bularning ijodi zamonaviy xitoy "ayollar adabiyoti"ga tamal toshi bo'lib qo'yildi.

⁴ Lin Shuxua (1900-1999)- juda mashhur nasr ustasi bo'lib, ijod bilan bir vaqtda Xitoyning nufuzli universitetlari va Londonda xitoy tili va adabiyotidan dars bergan. (Хун Чзыцэн. Творчество писателниц в книге: История современной китайской литературы. — Пекин, 1999. — б.355-365)

⁵ Lu In (1898-1934) – Suan Shuy, Xuan In ismlari bilan mashhur bo'lib, nasr va publitsistika sohasidagi muvafaqqiyatlari tufayli zamonaviy xitoy adabiyotining eng kuchli 18 ayol yozuvchisi ro'uxatiga kiritilgan. (Хун Чзыцэн. Творчество писателниц в книге: История современной китайской литературы. — Пекин, 1999. — б.355-365)

⁶ Din Lin (1904-1986) — asli ismi Szyan Binchji – "Ona", "Sangan daryosi uzra quyosh" romanlari, o'nga yaqin hikoyalar to'plami va qissalar muallifi. (Сюй Хуабин. Дин Лин Сяошо яньцзю. — Shanxaу, 1990; Ейдлин Л. О китайской литературе наших дней. — Москва, 1955; Насимова С. Психологизм личности героини произведения Дин Лин "Коровник"/"Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat" XII Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2015 B.137-143; Насимова С. Проблематика и поэтика рассказа Дин Лин "Менке"/"Sharqshunoslikning dolzarb masalalari" ilmiy to'plami. — ToshDShI, 2005.)

⁷ Syao Syun (1911-1942) - asli ismi Chjan Nayin xitoy realistik adabiyotining yirik namoyandasi. "Tashlandiq", "Hayot va o'lim maydoni" kabi asarlari va bir nechta hikoyalar to'plami muallifi. (Go Yuybin, Syao Syun Pinchuan (Syao Syunning tanqidiy biografiyasi). - Pekin, 2009; Лебедева Н.А. Сяо Хун. Жизнь. Творчество. Судьба. Дальнаука, 1998). -

⁸ Shi Pinmey (1902-1928) - o'ta qisqa umr ko'rishiga qaramay XX asr eng iste'dodli ijodkor ayollari to'rtligiga kirgan.



Mazkur maqola doirasida biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz. Agar ularning hayoti va ijodiga nazar tashlasak, ularning hayot yo'lida o'sha davr ijtimoiy muhitining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning barchasi oliy ma'lumotli, aksariyati ziyoli va boy xonadonlarning farzandlari, xorijda tahsil olishgan, mamlakat hayotida faol ishtirok etishgan. Ammo siyosat qurboni bo'lib "qayta tarbiyalash lagerlari"da jazo muddatlarini ham o'tashgan. Bir so'z bilan aytganda, davrning barcha qiyinchliklarini o'z taqdirida kechirishgan.

XX asrning birinchi yarmi ayollar adabiyotida o'z ijodi bilan iz qoldirgan adiba Sie Bin Sin 谢冰心 (1900-1999). Adibaning haqiqiy ismi Sie Vanin 谢婉莹 (taxallusi ma'nosi "Muz yurak") 7 yoshidanoq badiiy ijod bilan shug'ullangan. Pekindagi Amerika nasroniy qizlar maktabida, keyinchalik Yanszin universitetida tahsil olgan. Universitetni tamomlagach, Amerikada ingliz adabiyoti bo'yicha bakalavr yo'nalishida o'qigan. Bin Sin nafaqat mohir nasr ustasi, balki jahon adiblari (R.Tagor, H.Jubron) asarlarini xitoy tiliga o'g'irgan mohir tarjimon ham edi.⁹ Shu bilan birga turli universitetlarda pedagogik faoliyat olib borgan. Bin Sin o'z ijodini kichik she'rlar yozish bilan boshlagan. Tabiat, hayot va o'lim, baxt haqidagi tassavvurlar Bin Sin she'rlarining mavzular ko'lamini tashkil etib, bular keyinchalik uning hikoyalarining ham

mavzusiga aylandi.¹⁰ Bin Sin xitoy bolalar adabiyotining ham yirik namoyandasi hisoblanadi. Uning "Yosh kitobxonlarga maktublar" turkum hikoyalarida xitoy klassik janri hisoblangan –"biszi" (qisqa qaydlar) va Yevropa adabiyotiga xos sayohatchining kundaliklari uslubi uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi. Adiba bolalarning ichki dunyosi, ularning o'y-xayollari, atrofdagi voqelikka qarashlarini, onalik baxti haqida chuqur va atroficha tahlil qilishga harakat qiladi. Adiba ijodining bu jihatlari tanqidiy qarashlarga ham sabab bo'lgan. Bir qator xitoylik adabiyotshunos tanqidchilar, xususan, Van Chjefu, Xuan In, Mao Dunlar uning ijodiga tanqidiy qaraydilar. Van Chjefu o'zining "Xitoyda yangi adabiy harakat tarzi" asarida Bin Sin ijodiga baho berib: "Uning ishlari ilgarilab borayotgan jamiyat uchun eskicha, urfdan qolgan hisoblanadi"¹¹ deb yozadi. Tanqidchi adibani oilaviy, maishiy, maktab hayoti muammolari girdobida o'ralashib qolgan, ijtimoiy voqelikka tanqidiy yondashuv yo'q deb hisoblaydi. Munaqqid Xuan In esa, "Zamonaviy xitoy adibalari" asarida "U (Bin Sin), shubhasiz, ilk mashhur adibalarning va yangi adabiy harakatning tipik vakillari sirasiga kiradi... Ammo u tushungan narsalar quyidagilar: a) onalik mehri; b) okean; d) bolalik xotiralari, xolos" - deb baholaydi.¹² Xuan In ham adiba ijodida ijtimoiy muammolarning chuqur tahlili yo'q, degan xulosani beradi va adibaning uslubida o'tmishda qolib ketgan

⁹ Воробева А. Творчество Бин Син Пут Востока. Общество. Политика. Религия. Материалы XII и XIII молодежной научной конференции по проблемам философии, религии и культуры Востока – СПб: Санкт-Петербургское философское общество, 2009. – с 277-283.

¹⁰ Захарова Н. Бин Син и детская литература современного Китая

¹¹ Чжэфу В. Чжунго синь веньсо юньдун ши. — Пекин, 1933.

¹² Ин Х. Сяньдай чжунго нюцзоця. — Шанхай, 1930.



dekadentlik ruhidagi adabiyotning izlari bor deya tanqid qiladi.¹³ Mao Dun Bin Sinda “voqelik” ideallashtiriladi va “och qorin” bilan inson uning asarlarini o’qiganda xotirjamlik topa olmaydi, deb yozadi. Mao Dun adiba ijodida chuqur ijtimoiy kontekst yo’q, mistitsizmga moyillik kuchli deb baholaydi. Shuningdek, uning qahramonlari kuchsiz, o’z muammolarini hal qila olmaydigan odamlar tarizida talqin qilingan, deb hisoblaydi.¹⁴ Anglashiladiki, har uchala tanqidchi adiba asarlarida ijtimoiy tanqidning yo’qligini kamchilik sifatida e’tirof etganlar. Bin Sin umrining oxirigacha o’z ideallari, qarashlariga sodiq qoladi. U davr bilan hamnafas adiba edi. 75 yil mobaynidagi ijodida u doimo o’z qarashlariga sodiq qoldi, sinfiy manfaatlar kuychisiga aylanmadi. Kichkina insonlar (bolalar), oiladagi kichik muammolar, onalarning o’y iztiroblari, maktab hayoti singari mavzularni ko’tarish orqali oddiy insonlarning turmush tarzi haqida haqqoniy manzaralar yarata oldi.

Ikkinchi jahon urushi va o’tgan asrning 40-yillaridagi Xitoydagi grajdanlar urushi mamlakatda tizim almashinuviga olib keldi. Tabiiyki, hukmron tizimning mafkurasi, eng avvalo, madaniyat, san’at va adabiyotga jiddiy ta’sir ko’ratadi. Adabiyot hukumatning siyosiy quroliga aylandi. Turli adabiy harakatlar, yo’nalishlar rivojlandi. Bu esa, o’z navbatida, o’sha davr adabiy muhit manzarasini namoyon etadi. Xalq fojeasi, ziyolilarning urush paytidagi iztiroblari, urushning oddiy insonlar taqdiriga ta’siri kabi masalalarning

qalamga olinishi badiiy jihatdan yuqori saviyadagi asarlarning ham yaratilishiga turtki bo’ldi. XX asrning 50-yillariga kelib, Mao Szedunning ideologiyasi butun mamlakat bo’ylab hal qiluvchi kuchga aylandi. Bu ideologiyaning asosida adabiyotning ijtimoiy-siyosiy samaradorligini oshirish turardi. Bir so’z bilan ifodalaganda, adabiyot sinfiy, siyosiy manfaatlariga xizmat qilishi, bo’ysunishi lozim edi. Mazkur ideologiya har qanday ijod erkinligini taqiqlar edi. Natijada bu siyosatga qarshi bo’lgan va uni qo’llab quvvatlamagan ko’plab ijodkorlar xorijga chiqib ketdilar. Aksariyat yozuvchilar tarjimalar bilan shug’ullana boshladilar. Ayni shu yillari ham ayollar adabiyoti rivojlanishda to’xtamadi. Aksincha, juda ko’plab shoira va adibalar adabiyot sahnasiga kirib keldilar. Sao Min¹⁵, Lu Bicheng¹⁶, Chjan Aylin va boshqa o’nlab ijodkor shular jumlasidandir. XX asr Xitoy adabiyotida “eng iste’dodli” deb e’tirof etiladigan 4 nafar ijodkor ayol (Lu Bicheng, Shi Pingmey, Syao Syun) dan biri Chjan Aylin 张爱玲(1920-1995)dir. Chjan Aylin ijodining ayrim qirralari sinologlar tomonidan o’rganilgan. Jumladan, Leo Li, Li Oufan, Nikol Xuan, Van Ani, Y.A. Kupriyanovalarning ishlari shular jumlasidandir. U o’z ijodini 11yoshida boshlagan bo’lsa-da, adibaga haqiqiy mashhurlikni uning Shanxayda yashagan davrlarda qilgan ijodi keltirdi. Siyosiy vaziyat tufayli adibaning hayoti goh

¹⁵ Sao Min (1910-) - asli ismi U Syuanven- “Xavfli joy”, “Harakatlantiruvchi kuch”, “Lokomotiv”, “Shamol va to’lqinlarga qarshi” kabi roman, ocherk va hikoyalar muallifi.

¹⁶ Lyuy Bichen (1883-1943) - Xitoy tarixidagi birinchi ayol muharrir, Xitoyda ayollar huquqi uchun kurashgan jamoat arbobi, shoira.

¹³ Ин Х. Сяньдай чжунго нюцзоцзя. — Шанхай, 1930.

¹⁴ <https://sanwen.ru/2012/05/10/bin-sin-zhizn-tvorchestvo-sudbal>



Gonkongda, goh Shanhayda kechdi. U tomonidan nashr qilingan “Tashlandiq shahardagi muhabbat” 倾城之恋 romani, “Oltin kishanlar” 金锁记 qissasi, “Kuygan zamindagi ishq” 赤地之恋, “G’iybatlar” 流言 kabi qator asarlari adibaga misli ko’rilmagan mashhurlik keltirdi. 1955-yilda Aylin mamlakatni tark etib AQShga chiqib ketishga majbur bo’ldi. Muhojirlikda yashagan davrlarida Aylin xitoy adabiyotning mashhur namunalarini ingliz tiliga tarjima qildi. U nafaqat yozuvchi, pedagog, tarjimon, balki kinorejissyor sifatida ham mashhur. Shuningdek, uning asarlari asosida kinofilmlar ham ishlangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan barcha adibalar XX asr birinchi yarmi zamonaviy xitoy adabiyotining shakllanishida o’z ijodlari bilan beqiyos hissa qo’shdilar. Ular yaratgan salmoqli adabiy merosni o’rganish o’zbek xitoyshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr birinchi yarmi Xitoyda turli ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar sodir bo’ldi va adabiyot bu o’zgarishlarni o’zida aks ettirgan muhim jabhaga aylandi. Adabiyotga yondashuvda esa ikki xil yo’nalish shakllandi. Bir guruh yozuvchilar sinfiy manfaatlardan kelib chiqib adabiyotni mafkuraga xizmat qiluvchi qurolga aylantirgan bo’lsalar, ikkinchi guruh yozuvchilar adabiyotni davr ko’zgusi, voqelikni real in’ikos ettiruvchi qudratli bir kuch sifatidagi funksiyasini namoyon etdilar. Lekin har ikkala guruh yozuvchilarida ham muhim bir jihat,

badiiylik mezonlariga imkon qadar amal qilish, adabiyotni o’ta hujjatlashtirib yubormaslik tamoyillariga amal qilganligi kuzatiladi.

Bu davr adabiy muhitida ayol ijodkorlarning o’rni va ahamiyati beqiyos bo’ldi. Davr bilan hamnafas bolgan adibalar ijtimoiy hayotda sodir bo’layotgan eng muhim voqealarga befarq qaramadilar, aksincha, barcha qiyinchiliklar ularning ham hayotiga jiddiy ta’sir ko’rsatdi.

“Ayollar adabiyoti” namoyandalari tomonidan davrning dolzarb masalalarini aks ettiruvchi turli mavzudagi, turli janrdagi asarlar yaratildi, ayniqsa, hikoya va romanchilik borasida salmoqli yutuqlar qo’lga kiritildi. Tarjima adabiyoti taraqqiy topdi. Bu davrda yaratilgan asarlarning aksariyatida adibalar o’zlarining boshlaridan kechirgan, o’zlari bevosita guvohi bo’lgan voqealarni qalamga oldilar. Feministik ruhdagi nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki adabiyotda ham kuchli namoyon bo’ldi. Ayol badiiy asarlarning asosiy qahramoniga aylandi. Uning taqdiri, o’y kechinmalari, oiladagi o’rni, huquqi va mavqei kabi muammolar tasviri etakchi o’ringa chiqdi. Adibalar uslubida an’anaviy adabiyot an’analari va jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar tufayli kirib kelgan g’arb yozuvchilarining tajribasi uyg’unlashdi. Voqelikni realistik tasvirlash yo’sini yetakchilik qildi. XX asrning birini yarmidagi adabiyot o’zidan keyingi davr adabiyoti uchun muhim poydevor va zamin qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хун Чзыцэн. Творчество писателниц в книге: История современной китайской литературы. — Пекин, 1999.



2. Воробева А. Творчество Бин Син Пут Востока. Общество. Политика. Религия. Материалы XII и XIII молодежной научной конференции по проблемам философии, религии и культуры Востока – СПб: Санкт-Петербургское философское общество, 2009.
3. Захарова Н. Бин Син и детская литература современного Китая. 2017.
4. Ин Х. Сяньдай чжунго нюцзоцзя. — Шанхай, 1930.
5. Lijun Bi “Bing Xin: First female writer of Modern Chinese children’s literature” Australia, Monash University 2013.
6. 郭敬明. 幻城/郭敬明. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://www.kanunu8.com/book3/7431/>. – Дата доступа: 18.04.2018.
7. 樊发稼. 中国儿童文学发展史概述. /樊发稼. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.chinawxbh.com/html/sekh/view9.html>. – Дата доступа: 22.05.2019.
8. <https://sanwen.ru/2012/05/10/bin-sin-zhizn-tvorchestvo-sudbal>